

**ADABIYOTDA OTA OBRAZI (ULUG‘BEK HAMDAMNING „OTA‘‘,
OYBEKNING „QUTLUG‘ QON‘‘, ONORE DE BALZAKNING „GORIO
OTA‘‘ ASARLARI MISOLIDA)**

Filologiya fanlari doktori katta o‘qituvchi

Abdullayeva Gulnoza

Farg‘ona Davlat Universiteti talabasi

Usmonbekova E‘zoza

Annotatsiya

Ushbu tezisda adabiyotda ota obrazi orqali millat, xalq o‘tmishining yaqqol tasvirlanishi, personajlar yaratgan syujet tahlil qilinadi. Muallif ko‘zda tutgan xulosalar ochib beriladi va yakuniy fikr keltiriladi.

Kalit so‘zlar: badiiy obraz, personaj, nutqiy xarakteristika, aforistik, konflikt, assotsiativlik, tip, ota

Adabiyot fan o‘laroq, kitobxonning fikrlashi, xayolotiga ta‘sir o‘tkazuvchi so‘z san‘atidir. Badiiy asar esa badiiy muloqot vositasi hisoblanadi [1.41]. Adabiyot tarbiyalaydi, o‘ylantiradi, savolga tutadi. Hech bir omil inson psixologiyasiga so‘zdan kuchliroq quvvat berolmaydi. Badiiy adabiyot tarix bilan uzviy bog‘liq va tarix adabiyotlaridan farqli ravishda badiiyat to‘qima personajlar, prototiplarning ichki konfliktlari, nutqiy xarakteristikasi bilan ish ko‘radi. Badiiy asar muallif yashagan davr yoki uning subyektiv voqelikni baholovchi qarorlari dalili hisoblanadi. Bu jarayon, albatta, obrazlar harakati vositasida amalga oshadi. Shunday ekan, ularni alohida tavsiflashga ehtiyoj bor.

Badiiy adabiyotda ota obrazi turli millat vakillari tilidan turlicha talqinda beriladi. Bu, xususan, nazarda tutilgan fikr, maqsadga yo‘g‘rilgan bo‘ladi. O‘zbek xalqi o‘tmishi uzoq og‘ir kechmishni qamrab olgani bois fidokorlik ko‘rsatgan shaxslar guruhi doirasida erkaklarning o‘rni beqiyos. Ulug‘bek Hamdamning „Ota“ qissasi aynan shunday tarixni aks ettirgan asar hisoblanadi. Asar katta hajmda emas, ammo voqealar bir inson umriga teng. Dastlab urush manzaralari va hayot uchun kurash tasvirlansa, nihoyada musaffo osmon ostida, tinchlik zamonida omonatini topshirishga tayyorgarlik ko‘rayotgan ota voqeasi yuz ochadi. „Tug‘ilish va o‘lish oralig‘ida ota kim?“ xitobi bilan so‘zboshini yakunlaydi professor Umarali Normatov¹.

Po‘lat – tanlangan ism taqdiriga bitilgan qismatning naqadar og‘ir ekanini yaqqol aytib turadi. U mehribon umr yo‘ldosh, g‘amxo‘r farzand, fidoyi safdosh, sabrli

¹. U. Hamdam. Ota. – Toshkent, 2020.

OTA. Hayotining chirog‘i bo‘lgan Yog‘du esa bir umr Po‘lat va farzandlari Sevinch uchun yonib yashagan onadir. O‘n besh yillik dam ayriliqda, dam birgalikda o‘tgan turmush va farzandsizlik ikkisiga dunyoni tor qilib qo‘ygan edi. Bir ota yelkasiga shuncha ko‘rgiliklar yog‘ilishi kitobxonni ham larzaga solmay qo‘ymaydi. O‘zbek otasi o‘z tinchi, huzur-halovati evaziga farzandining bir lahzalik quvonchini afzal bilishi juda ta’sirli chizilgan. Lekin nihoyasida yana hamma mas’uliyat ota zimmasiga yuklanadi, oxirgi qadam matonat bilan bosiladi. Asar uslubi qisman aforistik xarakerga ega. Bu obrazlarning portretini chizishda muhim ahamiyat kasb etadi. Personajlar nomlanishida hamda syujet tarkibida assotsiativlik mavjud. Shu jihatlari bilan adresatning asar maqsadini ilg‘ab olishi yengillashtirilgan. Tipik obraz sifatida Po‘lat personaji o‘zbek xalqining butun o‘tmishini aks ettiradi.

Oybekning „Qutlug‘ qon“ romanida ayol-qizlarning ruhiyati ochib berilishi bilan birga ota obrazi ham muhim tub burilishlarga sabab bo‘ladi. Masalan, Yormat obrazi sodiq xizmatchi bo‘lish bilan birga kech pushaymon qilgan va buning oqibati fojiali yakun topgan xarakterdir. Asar davomida davr va insonlarning qanchalik shafqatsiz ekanliklariga guvoh bo‘lish mumkin. Gulorning, qolaversa, bir insonning umri otasi istak-xohishlari qurboniga aylanishi kitobxonni ta’sirlantirmay qolmaydi. Yormat necha yillab xizmat qilgan insonlarini yaqindan bilgan holda qizini ular uchun qimmat „tortiq“ qiladi, ochlik, uysizlik tashvishiga ana shunday „yechim“ topadi. Shu orqali jamiyatdagi ayrim shaxslarning ichki konfliktlari ochib beriladi.

Balzak „Gorio ota“ asarida Gorio obrazi tog‘risida shunday deydi: „Muallifga toshbag‘irlik aybini qo‘ymang, bu voqealar ayni haqiqatdirki, har qaysi odam uning nishonalarini o‘zidan ham topa oladi“². Gorio ota qizlari uchun har ishga o‘zini qurbon qiluvchi, otalik mehri deganda farzandlari istaklarining barini muhayyo qilishnigina tushinadigan personajdir. „Mehrning ham uvoli bor“ deydi xalqimiz. Otalik martabasi faqat moddiy narsalar bilan o‘lchanmasligi, oqibat, hurmat, qanoat tushunchalari oila mustahkamligining bir bo‘g‘ini ekanligini ham unutmaslik lozim. Asar syujeti davomida kitobxon ikki qizga nisbatan nafrat hissini tuyadi. Vaholanki, farzand ota-onaning ko‘zgusi, ularning tarbiya mahsuli hisoblanadi. Birgina farzandlardan ayb qidirish mantiqsizlikdir.

Har bir asar gumanistik g‘oyalarga yo‘g‘rilgan esa-da, fikrlashga majbur qiluvchi hamdir. Yuqorida tahlil qilingan obrazlar xarakter, davr nuqtayi nazaridan farq qiladi. Ulug‘bek Hamdam va Oybek asarlarida ota obrazi milliy qadriyatlar bilan to‘yingan, xalq o‘tmishini aks ettirganligi bilan jahon adabiyoti namunalaridan ajralib turadi. Aynan farqli jihati ham shunda: faqat inson omili va davr bilan cheklanib qolmay, yuz yillik tarix, taqdirilar kesishmasi yoritiladi. Asosiy xulosa o‘rnida muallif ochib bermoqchi bo‘lgan maqsad ota pozitsiyasi orqali jamiyatning ayrim guruhlari

². Onore de Balzak. Gorio ota. – Toshkent, 1968.

tanqid ostiga olinishi va bu zamonamiz muammolariga tom ma'noda yechim berishi bilan izohlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. D. Quronov va boshq. Adabiyotshunoslik lug'ati. – Toshkent, 2013.
2. D. Quronov. Adabiyot nazariyasi asoslari. – Toshkent, 2018.
3. Onore de Balzak. Gorio ota. – Toshkent, 1968.
4. U. Hamdam. Ota. – Toshkent, 2020.
5. Oybek. Qutlug' qon. – Toshkent, 1969.